

INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM SHAROITIDA O'QUVCHILARDA  
KOMPETENT YONDASHUV ASOSIDA TADQIQOTCHILIK  
KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.

*QDPI Magistratura bo'limi 2-bosqich magistranti  
To'rayeva Dilafruzxon Erkinovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola integratsiyalashgan ta'lism sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompetent yondashuv asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi. Maqolada o'quv rejalaridagi integratsion aloqalar, ekologik ta'lism va o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur pedagogik metodlar haqida bataysil ma'lumot berilgan. Boshlang'ich ta'limda fanlararo aloqalarni o'rganish, metodik yondashuvlarning ahamiyati, shuningdek, ijtimoiy va tabiiy muhit bilan bog'lanish orqali o'quvchilarda yanada yuqori darajadagi tafakkur va tahlil qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlanadi.

**Annotation :** This article emphasizes the importance of forming research skills in primary school students in the context of integrated education. It provides detailed information about the integration of subjects, environmental education, and necessary pedagogical methods to develop independent thinking skills. The article discusses how interdisciplinary connections in primary education, methodological approaches, and the relationship with the social and natural environment contribute to the development of higher-level thinking and analytical abilities in students.

**Аннотация:** В условиях интегративного образования важным является формирование у школьников исследовательских навыков, что основывается на компетентностном подходе. В переходный период, когда в нашей стране реализуются новые учебные планы и программы, необходимо гармонизировать связи между обществом и окружающей средой, а также устанавливать серьезное отношение к природной среде, что имеет ключевое значение. Это отношение формируется в начальных классах, и поэтому результат экономического образования напрямую зависит от первого этапа школьного образования

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi o'quv rejalarini va dasturlariga o'tish davrida jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o'rnatish va shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Atrof-muhitga jiddiy

munosabatlarning poydevori boshlang‘ich sinflarda o‘rgatiladi. Shuning uchun iqtisodiy ta’limning natijasi maktab ta’limiing birinchi bosqichiga bog‘liq.

Yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining bilish faoliyatlari cheklanganligi haqida ilgarigi tushunchalarini ko‘rib chiqishga imkon beradi. Bu boshlang‘ich iqtisodiy ta’limining barcha tarkibiy qismlarini o‘zgartirish va yangilashga asos yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va [dars talablariga mos keladigan](#), maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir. XIX-XX asrlar oralig‘ida pedagogikada kichik maktab o‘quchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalangan kursini yaratish fikri paydo bo‘lgan. Bu fikr A.Y.Gerd, D.N.Kaygorodov, A.P.Pavlov nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular boshlang‘ich maktabga atrofdagi jonli va jonsiz dunyo hakidagi bo‘linmagan kursni kirgizishni talab qilishdi. Integratsiyalashgan ta’lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y.Komenskiy, D.Lokk, I.Gerbart, M.Pestalotssi, K.Ushinskiy va boshqalar), didaktiklarning (I.D.Zverev, M.A.Danilov, V.N. Maksimova, S.P.Baranova, N.M.Katkina va boshqalar) psixolog olimlarning (E.N.Kabanova, Meller, N.F.Talizina, Y.A.Samarina, G.I.Vergeles), metodist olimlarning (M.R.Lvov, V.G.Goretskiy, N.N.Svetlovskaia, Y.M.Kolyagin, G.N.Pristupova) ishlarida ko‘rib chiqilgan. Bir qator ishlar boshlang‘ich ta’limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bag‘ishlangap. Bu muammolar o‘quv fanlarinn integratsiyalashga o‘tishning yaqin rivojlanish zonasidir (T.G.Raizayeva, G.N.Akvileva, D.I.Troytap, G.V. Baltyukova, N.Y.Velenkin, N.M.Drujnina, T.S.Nazarova, I.K.Blinova, R.G.Matyushova). Boshlang‘ich sinffanlarining integratsion aloqalari kam ishlab chiqilgan, qarama-qarshi ifodalangan.

Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama-qarshiliklar ko‘p Integratsiya atama va uslubiy nuqtaiy nazardan hodisa sifatida nima ekanligani ko‘rib chiqaylik.

“Integratsiya” so‘zi [lotincha integratio - tiklash](#), to‘ldirish, «integer» butun so‘zidan kelib chiqqan.

Differensiatsiya - fransuzcha (diffe’rentiofion lotincha differentia - farq, har hillik, ya’ni butunni bo‘laklarga bo‘lish, ajratish. Ta’lim mazmunini integratsiyalash - dunyo tendensiyasi (g‘oya, fikr, intilish). Integrativ yondoshishi turli darajadagi tizimli aloqalarning obektiv yaxlitligni aks ettiradi (tabiat- jamiyat - inson). Integratsiya ilgari bo‘lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog‘liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasining oshirishga olib keladi. Integratsiyalash mobaynida bir-biriga

bog'liqlik xajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o'rghanish obektining yaxlitligi tartibga solinadi.<sup>14</sup>

Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta'limida qo'llash mumkin? Zamonaliv didaktik va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvoffaqiyatlari ularning dunyoning birligi xaqida tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida predmentlararo va predmetlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog'liq. Ta'limdagи integratsiya o'quv predmetlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondoshish orqali ko'rib chiqiladi. Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi:

- boshlang'ich, tabiat haqidagi elementlar bilimlarni birlashtiradi;
- oraliq - predmetlar bo'limlarini bo'lish intergratsiyasi;
- yakuniy - tabiatshunoslikni o'rghanish bilan bog'liq bo'lgan ta'limning oxirgi bosqichi integratsiyasi.

Shu bilan birga, tabiiy-ilmiy ta'limini to'liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi. Maktab ta'limini integratsiyalash jarayonining psixologak asosi sifatida psixolog Y.A.Samarinning assotsiativ tafakkur to'g'risidaga fikrlari olinishi mumkin. Bu fikrlarniig mazmuni shundaki, har qanday bilim bu o'xshatish, bilimlar tizimi esa o'xshatishlar tizimidir. Y.A.Samarin o'xshatishlarning quyidagi turlarini ajratadi: lokal (mahalliy, ma'lum bir joy, narsa bilan chegaralangan), biror tizimga tegishli bo'lgan, tizim ichidagi, tizilar orasidagi va aqliy faoliyat darajalarini o'xshatishlarining mos keladigan darajasiga birlashtirish xususiyatiga qarab tasniflaydi)<sup>15</sup>.

Tabiat yoki predmet haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog'liqlikning eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liqlik boshqa bilimlardan nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi. Bu kichik maktab yoshiga xos. Biror bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlar eng sodda tizimli tasavvurlardir. Ular biror bir mavzu, predmet yoki hodisani o'rghanishi asosida hosil bo'ladi. Biror bir predmetni bilish yangi fakt va tushunchalarning tanlanishi ularni bir bilimlar bilan taqqoslanishi orqali amalga oshiriladi.

Bilimlarning eng oddiy umumlashtirish sodir bo'ladi, lekin olingan bilim hamma unga yaqin bo'lgan bilimlar bilan bog'lansa edi. Bunda o'quvchilarning

<sup>14</sup> [Ta'lim jarayonini integratsiyalashning nazariy asoslari. Integratsiyaning hozirgi zamon muammolari Farg'ona haqiqati gazetasi. #6. 2024. \(muhaz.org\)](#)

<sup>15</sup> [Ta'lim jarayonini integratsiyalashning nazariy asoslari. Integratsiyaning hozirgi zamon muammolari Farg'ona haqiqati gazetasi. #6. 2024. \(muhaz.org\)](#)

taxlil qilish va umumlashtirish faoliyatları vujudga keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar o‘quvchilarining butun bir fanlar tizimining bilishini ta’minlaydi. (fizikaviy, kimyoviy, biologik, bilimlar tizimi) o‘rganilayottan fan doirasida bilimlardan keng foydalanish kuzatiladi. Tizim ichidagi tasavvurlar, vaqt, muhit, son bog‘lanishlarni aks ettiradi.

Predmetlararo tasavvurlar aqliy faoliyatining eng yuqori pog‘onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli tizimlarini birlashtiradi, xodisa yoki jarayonning hilma-hiligini bilishiga imkoniyat beradi. Shu bilimlar asosida umumiyl tushunchalar kelib chiqadi.

Integratsiyalashgan bilimlardan muntazam foydalanish turli xil ko‘rgazmali qurollardan keng foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Integratsiya o‘zi uchun emas, balki o‘qituvchi faoliyatidagi ma'lum tizim bo‘lgani uchun, yaxlit ta‘limning yakuniy natijasi bo‘lishi kerak<sup>16</sup>. Bu integratsiyalashgan darslarni o‘tkazishni va boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi sinfdagi fanlarning hammasini yoki aksariyatini o‘rgatishini osonlashtiradi.<sup>17</sup> Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida savodxonlik va matematikani o‘qitish boshlang‘ich sinfda mamlakatning yetakchi olimlari va o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan yaxlit darsliklar (o‘qish, ona tili, matematika va tabiatshunoslik) yordamida olib borilmoqda.

Integratsiyalashgan ta‘lim natijasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- o‘quvchilarining birlashtiriladigan fanlarning ma'lumotlaridan foydalangan holda ko‘p qirrali talqini tufayli o‘zlashtirilgan tushunchalar, naqshlar chuqurligida namoyon bo‘ladigan mavzu bo‘yicha o‘quvchilar bilim darajasini oshirishda;
- taqdim etilgan intellektual faoliyat darajasini o‘zgartirishda, o‘quv materialini yetakchi g‘oyalar pozitsiyasidan ko‘rib chiqish, o‘rganilayotgan muammolar o‘rtasida tabiiy munosabatlarni o‘rnatish;
- musiqa, rasm, matematika, ona tili va boshqalarni jalg qilish asosida o‘quvchilarining hissiy rivojlanishida;
- darsda va darsdan keyin faol va mustaqil ishslashga intilishida namoyon bo‘ladigan o‘quvchilarining bilim qiziqishlarining rivojlantirishida;
- o‘quvchilarini ijodiy faoliyatga qo‘shilishida, natijada o‘zlarining she‘rlari, rasmlari, qo‘p san’atlari bo‘lishi mumkin, bu ba’zi bir hodisalarga shaxsiy munosabatning aksidir va jarayonlar.

<sup>16</sup> [Ta‘lim jarayonini integratsiyalashning nazariy asoslari. Integratsyaning hozirgi zamon muammolari Farg‘ona haqiqati gazetasi. #6. 2024. \(muhaz.org\)](http://www.muhaz.org)

<sup>17</sup> Toshpulatova Durdona Komiljon Qizi INTEGRATSIYALASHGAN TA‘LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING MUSTAQILLIGI, BILIM FAOLIYATI VA QIZIQISHLARI RIVOJLANTIRISH // SAI. 2023. №Special Issue 7.

Belgilangan jihatlar o'qitishning ta'lif, rivojlantirish va tarbiyalash funksiyalariga mos keladi. Bu bizni yaxlit o'rganish o'quvchining har tomonlama rivojlanishiga va darsdagi mavzularni chuqur o'rganishga yordam beradi degan xulosani rivojlantirishga imkon beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va takomillashtirishning integrativ modelining boshlang'ich ta'lif amaliyotiga joriy etilishi metodika yordamida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish muammosini hal etishning nazariy va amaliy tajribasiga tayanib, biz tomonimizdan integrativ yondashuvda boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ishlari amalga oshirildi.

Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion-metodlardan foydalilanligini ta'kidlash muhim bo'lib, biz quyidagilardan foydalandik:

- 1) intellektual jarayonlar, ular fikrlash, mulohaza yuritish, asoslash, isbotlash holatlarini uyg'otadi (analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash);
- 2) emotsiyonal jarayonlar (muvaqqiyat, xursandchilik, o'z yutuqlaridan faxrlanish, faoliyatdan qoniqishni boshdan kechirish);
- 3) tartibga soluvchi jarayonlar (kuchlarni jamlash sifatida irodaviy intilishlar, maqsadga yo'nalganlik, qaror qabul qilish, tirishqoqlik, qat'iyatlilik, diqqat);
- 4) ijodiy jarayonlar, ular tasavvur, xayolot, yangi obrazlarni, modellarni yaratish va b.q. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni amalga oshirish pedagogik sharoitlarini joriy etish ma'lum fanlarni o'zlashtirish doirasida darsda va darsdan tashqari vaqtida sodir bo'lib, ular tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ma'lum imkoniyatlarni ochib berdi.<sup>18</sup>

Bunda integrativ yondashuv asosida (matematika: o'qish, ona tili, tabiatshunoslik) boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy va ijodiy topshiriqlar hamda mashqlar talablariga rioya etildi.

Psixologiya va pedagogika fani tafakkurning uch turini ajratib turadi:  
faol fikrlash - ilgari ma'lum bo'lgan ma'lumotlar bilan ishslash;  
mustaqil fikrlash - bu albatta faoldir, chunki faoliyat mustaqillikda allaqachon tugagan;

---

<sup>18</sup> D.K.Toshpulatova Integratsiyalashgan ta'lif jarayonida o'quvchilarning mustaqilligi, bilim faoliyati va qiziqishlari rivojlantirish // sai. 2023. № special issue 7.

ijodiy fikrlash - bu o'quvchi ochilganda, harakat jarayonida yangi mao'lumotlar paydo bo'lishi holati yuzaga keladigan joyda sodir bo'ladi.<sup>19</sup>

Integratsiyalashgan ta'lim tizimining asosi bo'lgan faoliyatga asoslangan yondashuv o'qituvchiga aniq uchinchi, eng muhim bolalar tafakkur turini rivojlantirishga imkon beradi. O'qituvchining integratsiyani kengaytirish va chuqurlashtirish bo'yicha faol ishi boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalash, ularning ijodiy fikrlash faoliyatini shakllantirish muammolarini kompleks hal qilishning muhim usullaridan biridir. Ushbu jarayon ijodiy fikrlaydigan o'qituvchiga mukammallikni o'qitishning haqiqiy cho'qqilariga chiqishga imkon beradi.<sup>20</sup>

Shu munosabat bilan eksperimental ish jarayonida biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqdik. Shu bilan birga, ushbu faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun barcha didaktik shartlar hisobga olingan.<sup>21</sup>

Jahonda o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim mazmunini fan yutuqlari bilan uyg'unlashtirish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholashning xalqaro dasturlari (PISA, TIMSS) hamda o'quvchi kompetensiyalarining shakllanganligini tashxislash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi tasdiqlandi, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, umumiylor ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda fan o'quv dasturlari ishlab chiqildi, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtiroy etishning me'yoriy asoslari yaratildi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarni o'zlashtirilgan axborotlarni o'quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandard vaziyatlarida qo'llay olishga tayyorlashi bilan harakterlanadi.

Maktab ta'limini zamонавиј ривојланиш талабларига мослаштириш фанлардан elektron ta'lim resurslarini takomillashtirish, o'quvchilarning

<sup>19</sup> Toshpulatova Durdon Komiljon Qizi INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQILLIGI, BILIM FAOLIYATI VA QIZIQISHLARI RIVOJLANTIRISH // SAI. 2023. №Special Issue 7.

<sup>20</sup> Toshpulatova Durdon Komiljon Qizi INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQILLIGI, BILIM FAOLIYATI VA QIZIQISHLARI RIVOJLANTIRISH // SAI. 2023. №Special Issue 7.

<sup>21</sup> Samaridin Barakayevich Qorayev, Nodir Ilxomovich Tirkashev KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMNING ASOSIY JIHATLARI // Academic research in educational sciences. 2022. №1.

elektron manbalar bilan faol muloqotini ta'minlash, mustaqil ta'limini amalga oshirish va o'z-o'zini baholash, zaruriy ma'lumotni operativ izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Shu nuqtai nazardan ta'lim sifati ko'rsatkichlaridan biri kompetentlilik hisoblanadi. U faqatgina bilim va ko'nikmalar yig'indisi bo'libgina qolmay, o'quvchilarining egallagan bilimlarini mobillashtirish va aniq vaziyatlarda tajribada qo'llay olishi bilan tavsiflanadi.

Fikrimizcha, bu jihatlar tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning metodik shart-sharoitlarini belgilash muhimligini ko'rsatadi. Tadqiqot ishimiz muammosi doirasida “tadqiqotchilik kompetensiyasi” tushunchasini aniqlashtirish zarurati tug'ildi. Zero, tadqiqot tushunchasi zamirida o'quvchining yangi bilimlarni izlab topish, intellektual mahsulot olish, loyihalar yaratish, muammoga yechim topish kabi ko'nikma va malakalarning bir butunligi mujassamligini aytish joiz. Shu jihatdan tadqiqotchilik yo'nalishida ish olib borgan olimlarning fikrlari va izlanishlarimiz natijasiga asoslanib, mazkur tushunchaga quyidagicha ta'rif berildi:

Tadqiqotchilik kompetensiyasi – bu o'quvchilarining tadqiqot faoliyati davomida shakllantirilishi mumkin bo'lgan shaxsiy bilim, ko'nikma, malaka va tajribalari yo'nalishlari mazmuni, qiymati, xulq-atvori me'yorlari majmuyidir.  
<sup>22</sup>

Bunda o'quv jarayonlari xususiyatlariga ko'ra muayyan vaqt mobaynida (qisqa yoki uzoq muddatli) tadqiq etilayotgan obyekt doirasida tanqidiy fikrlash, g'oyalarni ilgari surish, muammolarni aniqlashtirish, turli xil bilim manbalari bilan mustaqil ishlash, kuzatish, tadqiq etish, yechimlarni taklif qilish asosida noma'lum bo'lgan yangi bilimlarni izlab topish va o'zlashtirish algortimi tushuniladi.<sup>23</sup>

O'quvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish muammosi ustida ishlash bevosita maqsadga yo'naltirilgan mashaqqatli jarayondir. Bu jarayonda o'quvchilar, pedagoglar jamoasi, ta'lim muasassalari rahbariyati hamda ota-onalarning sa'y-harakatlari o'zaro muvofiqlashishi va jamlanishi ko'zda tutilishi zarur.

Tadqiqot kompetensiyasi o'quvchilarining yangi bilimlarni mustaqil egallah, mazmunini o'zlashtirishga intilish qobiliyati va jarayonga tayyorligi;

<sup>22</sup> Usmonaliyeva R. O'qituvchilarining mediakompetentliligini shakllantirishning ayrim xususiyatlari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2015. – № 4. – B. 114.

<sup>23</sup> Usmonaliyeva R. O'qituvchilarining mediakompetentliligini shakllantirishning ayrim xususiyatlari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2015. – № 4. – B. 114.

mavzuga doir turli adabiyotlar bilan ishlash; kuzatishlari natijasida g‘oya va taxminlarni ilgari surish, eksperiment o‘tkazish; muammoni chuqur tadqiq etish: ajratib ko‘rsatish, hal qilish yo’llarini taklif qilish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘qitishning asosiy mohiyati kasbga yo’naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko’nikma va malakalarni o‘z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo’llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo’naltirish sanaladi.

O‘quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhim o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim.<sup>24</sup>

O‘quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat o‘quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi.

Milliy tizimda o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmasini shakllantirish amaliyoti, asosan, tabiiy va politexnik yo‘nalishdagi fanlar kesimida yo‘lga qo‘yilganini va bunda turli xil yondashuvlarga asoslanish tajribasi mavjud. Tadqiqotchilar tomonidan muammoli ta’lim masalasi tahlil qilinar ekan, avvalo, mazkur tushuncha ma’nosiga aniqlik kiritiladi. Mazkur yondashuvning o‘quvchilarda shakllantiriladigan ko‘nikma va malakalarga ta’siri baholanadi.

Xususan, “Bilim oluvchining oldiga muammo qo‘yilgandan keyin uning mohiyatini tushunish zarur bo‘ladi. Muammoning ma’lum bo‘lgan shartlari asosida ongda muvaqqat bog‘lanish amalga oshadi. Muvafaqqat bog‘lanishlar yechimga olib boruvchi farazlarni keltirib chiqaradi. Farazlarning to‘g‘riliqi sinab ko‘rligandan keyin, agar u tasdiqlansa, muammo yechilgan hisoblanadi. Faraz tasdiqlanmagan holda yangi faraz ilgari suriladi. Yangi farazning to‘g‘riliqi tasdiqlanguncha davom etadi. Shu taxlitda bilim oluvchi o‘rganayotgan materiallarni mukammal o‘zlashtiradi va amaliyotga tatbiq etish ko‘nikma, malakalariga ega bo‘ladi”<sup>25</sup>.

<sup>24</sup> Qoraev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 45-50

<sup>25</sup> Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиши методикаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 140-6.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ta'limgarayonini integratsiyalashning nazariy asoslari. Integratsiyaning hozirgi zamон muammolari Farg'ona haqiqati gazetasi. #6. 2024. ([muhaz.org](http://muhaz.org))
2. Toshpulatova Durdona Komiljon Qizi INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQILLIGI, BILIM FAOLIYATI VA QIZIQISHLARI RIVOJLANTIRISH // SAI. 2023. №Special Issue 7.
3. D.K.Toshpulatova Integratsiyalashgan ta'limgarayonida o'quvchilarning mustaqilligi, bilim faoliyati va qiziqishlari rivojlantirish // sai. 2023. № special issue 7.
4. Samaridin Barakayevich Qorayev, Nodir Ilxomovich Tirkashev KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMNING ASOSIY JIHATLARI // Academic research in educational sciences. 2022. №1.
5. Usmonaliyeva R. O'qituvchilarning mediakompetentliligini shakllantirishning ayrim xususiyatlari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2015. – № 4. – B. 114.
6. Qoraev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 45-50.